

Buxoro viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-iyul dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- avgust holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 13 098 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 66 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 13 032 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-iyul oyida viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 12 699,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 107,2 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 139,2 mlrd. so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 11 559,9 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 597,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,0 %) tashkil etdi.

Shaharlar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ■ Uyushmagan savdo


II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- avgust holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 211 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 40 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 171 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-iyul oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 10 067,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 13,6 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 6 127,1 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 2,2 % ga kamaydi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 60,9 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd. so'm)



Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar Qorovulbozor (2 237,0 m.), Jondor (2,2 m.), Peshku (173,0 %), G'ijduvon (165,8 %), Romitan (144,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Shaharlar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1- avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 540 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 534 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-iyul oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 6 209,7 mlrd. so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 10,2 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 89,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlataladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovgatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovgatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo statistikasi bo'limi	Boshqarma boshlig'i: U.Djumanazarov Tel: +998655058000 (8001)	Ijrochi: Z.Saidova Tel: +998(65) 505-80-00 (8040) e-pochta: info@buxstat.uz buxstat@exat.uz	Manzil: 200100, Buxoro sh., S.Ayni ko'chasi, 3
--	--	--	--